

"Navoiyshunoslikning global yo'nalishlari:  
yangi izlanishlar va tarjima muammolari"  
mavzusida

**RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI**

**I JILD**

4. Alisher Navoiy. TAT. Xazoyin ul-maoniy. Favoyid ul-kibar. – Toshkent: O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligi G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2012. – 840 b.

5. Носириддин Бурхониддин Рабғузий. Қисаси Рабғузий. Иккинчи китоб. – Тошкент: Ёзувчи, 1991. – 272 б.

6. Қобилов У.У. Илоҳиёт ва бадиият (Монография). 1-китоб. - Тошкент: “Нихол” нашриёти, 2008 йил, 154 бет.

7. Қобилов У.У. Профетология ва ўзбек адабиёти (Монография). 2-китоб. - Самарқанд: СамДУ нашри, 2023 йил, 254 бет

8. Қобилов У.У., Халмурадов Х.Т., Санақулов У.Қ. Алишер Навоий: шеър ва шоир абадияти (Монография). - Тошкент: “LESSON PRESS” нашриёти, 2023 йил, 380 бет

## ALISHER NAVOIY ASARLARI MATNI TALQINI MUAMMOLARI

**Abdulxayrov Manzar Xusanovich,**  
*Filologiya fanlari doktori, professor,*  
*Alisher Navoiy nomidagi*

*Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti,*  
[manzarabdulxayrov64@gmail.com](mailto:manzarabdulxayrov64@gmail.com)

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Navoiy asarlari misolida ilk bor mumtoz badiiy matn talqini muammolari monografik planda tadqiq qilingan. Badiiy talqin istilohining tarixiy va nazariy asoslari yoritilgan. Ayni muammoni o‘rganishda Alisher Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” asarlaridagi ayrim badiiy obraz, badiiy timsollarga murojaat etilgan. Lozim o‘rinlarda jahon badiiy talqin usullari tadqiqot doirasiga tortilgan.

**Kalit so‘zlar:** mumtoz adabiyot, struktural talqin, germeneytik talqin, semiotik talqin, immanentlik, funktsionallik, retsepsiya, asar strukturasi, ramz, majoz, timsol, sharh.

**Abstract.** In this article, on the example of Navoi's works, for the first time, the problems of classical artistic text interpretation are studied in a monographic plan. The historical and theoretical foundations of the revolution of artistic interpretation are covered. In the study of this problem, some artistic images and artistic symbols in Alisher Navoi's works "Khazayin ul-Maoni" were addressed. In necessary places, world artistic interpretation methods are included in the scope of research.

**Keywords:** Classical literature, structural interpretation, hermeneutic interpretation, semiotic interpretation, immanence, functionality, reception, work structure, symbol, metaphor, symbol, interpretation.

**Аннотация:** В данной статье на примере произведений Алишера Навои впервые в монографическом плане исследуются проблемы интерпретации классического художественного текста. Освещаются исторические и

теоретические основы понятия художественной интерпретации. При изучении данной проблемы автор обращается к отдельным художественным образам и символам в произведениях Алишера Навои «Хазоин ул-маоний». В необходимых случаях в сферу исследования включаются мировые методы художественной интерпретации.

**Ключевые слова:** классическая литература, структурная интерпретация, герменевтическая интерпретация, семиотическая интерпретация, имманентность, функциональность, рецепция, структура произведения, символ, метафора, образ, комментарий.

Mustaqillik davri navoiyshunosligi o'zini-o'zi muhofaza qiladigan darajada bilim, o'zini-o'zi xato va kamchiliklardan qutqaradigan saviyada o'tkir did va mushohadaga erishmog'i joizdir. Holbuki, ulug' shoirning birgina baytini har jihatdan o'rganib, zohiriy va botiniy ma'nolarini, san'atini qoyillatib talqin etish, o'nlab g'azallarga bitilgan sayoz tahlillardan afzaldir. Albatta, hozir badiiy asar strukturasi, *semiotikasi* (belgilar va belgi tizimlarining umumiy xususiyatlarini o'rganadi) bo'yicha ba'zi ishlar amalga oshirilmoqda. Ularda matnning tagma'nosini tadqiq etishga harakat qilinmoqda. Shuningdek, *immanentlik* (biror predmet, hodisa yoki jarayonning ichki xususiyatiga xos bo'lgan, uning tabiatidan kelib chiqadigan qonuniyat) va *funksionallik* (muayyan munosabatlar sistemasida obyekt xususiyatlarining tashqi namoyon bo'lishi, bajarayotgan vazifasi) tamoyillaridan kelib chiqadi.

Rolan Bart fikricha, "Immanent, doxiliy tadqiqotning maqsadi – muayyan obyektida tuzilish, aloqa va o'zaro munosabat strukturasi qay tarzda tashkil topishini o'rganishdan iboratdir. Buning natijasida asar bir butun yaxlit holda, o'ziga xos sistema, tuzilma sifatida namoyon bo'ladi". Shu tariqa, ilmiy metod vositasida asarning yaxlitligi va o'ziga xos sistema sifatida namoyon bo'lishini aniqlash pirovardida uning nisbatan to'g'ri ekanligini namoyon qiladi. U bor e'tiborni matnni "tushuntirib berish"da muallifning tajribasi va qiziqishlari hal etuvchi ahamiyatga ega ekanligini yoqlab chiqqan. Olim e'tiroficha, ushbu metod aniq va qulay, biroq amalda ishonchsiz va talay kamchiliklarga ega: "Matnni muallif yozdi" deb uni shunga mos ravishda talqin qilish "matnga cheklov qo'yish" demakdir. Matnni to'g'ri talqin qilish maqsadida o'quvchilar badiiy asarni muallifga e'tibor bermagan holda o'qib chiqishlari lozim".

Shunga qaramasdan, strukturalizm metodologiyasidan foydalanish asosan ikki sohada, ya'ni adabiy asarlarni semiotika nuqtai nazaridan tahlil qilishda hamda muayyan janr (roman, tragediya, qissa)larda syujet negizini tashkil qilgan kombinatsiya va variatsiyalardan iborat strukturalarni tahlil qilishda olib borilmoqda. Shu bilan birga, struktur poetikaning *narratologiya* (hikoya qilish nazariyasi) sohasida tadqiqotlar olib borishda ham ahamiyati kattadir. Bu fikr, ya'ni matnni tadqiq etishning badiiy tahlil usuli Navoiy asarlari bo'yicha amalga oshirilayotgan tadqiqot ishlariga ham tegishli. Shu o'rinda shuni aytish joizki, xristian nuqtai nazari bilan, islom nuqtai nazari o'rtasida juda katta farq bor". Aynan shu farq va tafovut hisobga olinmasligi sababli Navoiy lirik qahramonlari

dunyoqarash va shaxsiyati yoritilgan ayrim tadqiqotlarda she'riy matndagi asl mohiyat va haqiqatga hech muvofiq kelmaydigan fikr-qarashlar ilgari suriladi. Buning bosh sababi esa matnning g'oyaviy-badiiy tarkibini to'g'ri va teran mushohada etmasdan rus adabiyotshunosligidagi ilmiy-nazariy tushuncha va xulosalarni unga tatbiq qilganligimizdadir. Shaxs va shaxsiyat komilligini Navoiy qanday anglab, qanaqa darajalarda talqin qilgan bo'lsa, ilmda xuddi shunday tarzda ko'rsatish maqsadga muvofiqdir.

Mumtoz badiiy matn tahlili matnni sinchiklab o'qish va uqish demakdir. Ko'pincha, poetik matn tadqiqi deyilganda, asosan g'oya va mazmundan bahs yuritish, vazn, qofiya, badiiy san'atlar xususida so'zlash tushuniladi. Unda matnning tagma'no qatlamlarini ochish, matn mohiyatini chuqur anglab yetish, hatto matndagi har bir so'z, har bir ibora ma'nolarining jilosi, rangi va badiiy tafakkuri o'z adabiy yechimini topishi shart. Aks holda, badiiy matn tahlili konsepsiyasidagi ayrim masalalar o'z yechimini topmay qolishi muqarrar. Zotan, bu masalaga adabiyotshunos olim Abdug'afur Rasulovning quyidagi mulohazalari yanada aniqlik kiritadi: "V.Izerning ta'kidlashicha, adabiy matnda yashirin (implitsit) kitobxon faoliyat ko'rsatadi. U hamisha real kitobxon bilan ro'baro' keladi: asarning estetik boyligi imkoniyatini real kitobxonga yuqtiradi. Adabiy matndagi badiiylik qutbi o'zgarmagan holda, estetik qutb – implitsitiv kitobxon real kitobxon ta'sirida o'sib, o'zgarib boradi – zamonning estetik-ma'naviy ehtiyojlariga yuz buradi. Shunday asarlar borki, kitobxon (tanqidchi)dagi estetik ehtiyoj boyib, ortib boravergan sayin matndagi zaxira qavatlar, imkoniyatlar o'zini namoyon eta boradi. Buni V.Izer ma'nolar zich, tig'izligining kontinuumi (qat-qatligi), deydi. Adabiy matn hech qachon bir yo'nalishdagi axborot yoxud hujjat sifatida qabul qilinmaydi. U hamisha, har qachon ma'nolarning ko'p qavatlilik, zichligi manbaidir. Badiiy matn talqin qilingan reallik ortida yuz ko'rsatgan yana allaqanday tushunchalar, holatlardan xabardor qilishi joiz". Demak, matn ustida ish olib borayotgan tadqiqotchi matnni nafaqat aqliy bilimlari vositasida, balki bilvosita qalb bilan chuqur anglashi va uni o'zida shakllantirishi maqsadga muvofiqdir. Navoiy g'azallari tahlilida shularni yoritishga urinish kerak. Aksariyat hollarda shoir ijodiyotini anglashdan benasib qolamiz. O'z-o'zidan nima sababdan shunday degan savol tug'iladi?

Shu o'rinda shuni aytish joizki, har bir millat qadriyatlarining badiiy matnda ifoda topish yo'sini, xalqaro nufuzi – xalqining muayyan axloqiy an'anaviylik tamoyillariga rioya qilishi, bardavom axloqiy an'anaviylik negizida timsollar yaratishi bilan belgilanadi. Zotan, u yoki bu millat shoirlarining badiiy uslubi, she'riyatidagi poetik obraz, ramz va timsollarning jilosi diniy-axloqiy an'anaviylik zaminidan bahra olib, rivojlanadi. Diniy-axloqiy qarashlar zimnidagi an'anaviylik, bu – muayyan bir sohaning an'anaviy-axloqiy negiz aurasida kelajakda tadrijiy rivojlantirilishi, muvaffaqiyatli bardavomligi, yangi-yangi jihatlari inkishof etilishi zarur bo'lgan ruhoni-axloqiy hodisadir. Xususan, Navoiy nazmiyoti haqida so'z yuritganda bardavom an'anaviylikning mohiyatiga alohida e'tibor qaratmoq joiz.

Navoiy asarlari matnini tahlil qilishda *germenevtik talqin usullari* haqida soʻz boshlar ekanmiz, adabiy germenevtikaning yirik namoyandalari sifatida D.B.Medison, G.Silverman, Y.Gronzin va E.Tiseltonlar oʻz ishlarida Gadamer gʻoyalarini taraqqiy toptirib, asosan postmodernizm namunalarining matn xususiyatlarini oʻrgananlarini qayd etish lozim. Bu boradagi tadqiqotlar Rossiyada M.M.Baxtin, D.S.Lixachev va V.V.Vinogradovlarning badiiy matnga oid ishlarida kuzatiladi. Oʻzbek adabiyotshunosligida B.Nazarov, A.Erkinov, H.Boltaboyev, B.Karimov, D.Salohiy kabi olimlar germenevtik tadqiqotlar doirasini toʻldirishga intilganlar.

XIV asrda Yevropada tushuntirish, talqin sanʼatiga asoslangan adabiy germenevtika badiiy matnni tushunish jarayonini uning arxitektonik imkoniyatlari doirasida oʻrganadigan fandır. “Arxitektonika” termini yunoncha *arhitektonike* “qurilish sanʼati” maʼnosida qoʻllanadi [1.:1 3]. Bu uslub Yevropa matnshunosligi fani olamida yozuv yodgorlik matnini teran anglash, ularning matniy maʼnolariga chuqur yetib, tahlil etish usuli sifatida dong taratdi. Adabiy germenevtik tahlil usuli asosida ham Alisher Navoiyning asarlari tadqiq etilgan [2.: 3]. Germenevtik tahlilni oʻzbek adabiyotshunosligiga olib kirgan adabiyotshunos olimlardan biri Aftondil Erkinov boʻldi. Mazkur matniy tadqiq etish usuli matnshunos olimlar tomonidan oʻz davrida ham ijobiy baholandi. Keyinchalik ham badiiy asar matnini oʻrganishda bu usuldan keng miqyosda foydalanildi. Hozirgi oʻzbek matnshunosligida germenevtikaning muhim ahamiyat kasb etishi eʼtirof etilmoqda. Bu usul ikki tushunchani oʻzida mujassam etgan: a) matn talqini nazariyasi va amaliyoti; b) zamonaviy falsafadagi oqim. Demak, badiiy asarni matniy tadqiq etishning yana bir usuli germenevtika deb nomlangan. U yozuv yodgorliklar matnining tagmaʼnosini ochish usuli boʻlib, hozirgacha muayyan oʻzgarishlar bilan yetib kelgan qadimgi matnlarning dastlabki maʼnosini qayta tiklashga qaratilgan bir taʼlimot hisoblanadi. Shuningdek, u oʻtmishda yaratilgan yozma yodgorliklarning haqiqiy, asl matnini tiklashga va uning mumtoz adabiyotimiz tarixidagi oʻrni, ahamiyatini koʻrsatib berishga qaratilgan matniy tadqiqot usullari majmuini tashkil etadi. Bu soha tahlil yoʻsinining asosiy nazariy tamoyillari quyidagilardan iborat: 1) umumiy kontekstual talqin tamoyillari; 2) shu soha doirasiga kiruvchi talqin usullari; 3) muallif nazarda tutgan aniq maqsad va mulohazalarga asoslangan holda matnning tarixiy-tadrijiy va ijtimoiy-siyosiy sharoitdagi hayoti, unda sodir boʻlishi mumkin boʻlgan oʻzgarishlar va uning boshqa qoʻlyozma nusxalari tahlili; 4) muallif mantiqiy fikr-mulohazalari maʼnolarini ochish; 5) tahlilda muayyan matnning yuzaga kelishida bevosita yoki bilvosita ahamiyatga ega boʻlgan pragmatik imkoniyatlarga ham asoslanish. Yaʼni qoʻlyozmaning yaratilish jarayoni, muallif shaxsiyati va ijodiyotiga doir biografik maʼlumotlar, asar muallifining uslubi kabi barcha masalalarga tayanishdir.

Hazrat Navoiy badiiy asarni, uning maʼno-mohiyatini tushunishni sheʼrshunoslik, deb atagan ekan. Biz ham shunga muvofiq ravishda sheʼrshunoslikni asar tilini tushunish, uning gʻoyasini anglab yetish, binobarin asar matni tahlili orqali talqin bilan amalga oshiriladigan germenevtik sharoit deb hisoblaymiz. Aftondil Erkinov shunday eʼtirof etadi: “Bizningcha, germenevtika – talqin nazariyasi va

ta'limotini o'zbek adabiyotiga keng tatbiq etish davri kelgan. Aslida, har bir adabiyotshunos olim o'z tadqiqotida asar matni talqini bilan shug'ullanadi, qaysidir darajada germenevtika bilan munosabatga kirishadi. Biroq olimlarimiz interpretatsiya masalasida muayyan ishlarni amalga oshirgan bo'lsalar-da, bu atama va falsafiy ta'limot fanimiz uchun nisbatan yangilikdir. Germenevtika ta'limot sifatida G'arbda shakllangan, biroq o'zimizda matn talqinining o'ndan ortiq yo'nalishlari, jumladan, tafsir, ilmi hoshiya, sharh bitish, miniatyura... kabi talqin bilan bog'liq mustaqil sohalar avvaldan mavjud bo'lgan. Germenevtikani o'zbek klassik adabiyotiga doir manbalarga tatbiq etish, uni zamonaviy o'zbek adabiyotshunosligiga olib kirish lozim" [3.: 4].

Berilgan matnning badiiyligi, emotsionalligi, ta'sirchanligi, tasviriyligi ortida ijodkorning, u tegishli bo'lgan xalq va umuman insoniyatning fasohati, anglab yetilgan yoki anglab yetilmagan fasohati zamirida, minglab avlodlarning orzu-umidlari, tilaklari, estetik dunyosi, qalb manzaralari tasviri mujassam bo'ladi. Mana shularning hammasi germenevtikaning badiiy tilga asoslangan matn imkoniyatlari zamirida o'rin topadi" [1.: 48]. Buni "Favoyid ul-kibar"ning 343-g'azalidagi bir matla' sharhi misolida ko'rishimiz mumkin.

Toza dog' atrofida jismimda tim-tim qon ko'rung,  
Dardu g'am tog'ida, vah-vah, lolai No'"mon ko'rung.

Ma'lumki, mumtoz adabiyotda *dog'* so'zi "kuyuk", "kuygan joy"; "qoralik"; "qizdirilgan temir bilan inson yoki hayvonlar tanasiga bosilgan belgi, "nishon", "naqsh", "iz", "jarohat" va "g'am-anduh", "qayg'u-alam" singari ma'nolarda keladi. *Tim* so'zi esa, "tomchi", "qatra"; "katta karvon saroy", "usti yopilgan bozor", "rasta"; "g'am", "anduh" singari ma'nolarda keladi. Baytda esa, *dog'* va *tim* so'zlarini badiiy ma'no olamidagi cheksizlik jarayoni sari qo'llanilgan tushunchalar deyish mumkin. Birinchi misra hasbi hol ruhida yozilgan bo'lib, mazmuni quyidagicha: jismimdagi yangi jarohat atrofida paydo bo'lgan qatra-qatra qonni ko'ring. Bu xuddi dardu g'am, ya'ni go'yo g'am tog'i tevaragidagi *lolai No'"mon* (qizil lola)ga o'xshaydi. Matla'ning botiniy ma'nosi esa quyidagicha: chuqur qayg'ular bois ko'nglimda g'am-anduh usti yopiq bozordagi shovqin misoli harakatlanadi. Bu go'yo asrlar davomida shakllagan dardu g'am tog'ining oh nolalari tufayli unda paydo bo'lgan qizil lola a'moliga mengzashdir. Bu matla'da shoirning bag'oyat bir ichki sukuti hukm surib, bu tarz uning butun mazmun-mohiyatini, aniqrog'i, chin oshiqning botiniy ahvoli ruhiyasini yaqqol namoyon qiladi. Ammo ushbu baytda tajohul ul-orif san'ati qo'llanilganligini hisobga oladigan bo'lsak, uning zamirida yana bir boshqa ma'no ham borligi ma'lum bo'ladi. Atoulloh Husayniyning yozishicha: "*Tajohul ul-orif*" andin iboratturkim, so'zlaguvchi bir nimani bilur, ammo bir nukta bila o'zni bilmagandek ko'rsatur. "*Miftoh*" sohibi bu san'atni *suqu-ma'lum masoqa g'ayrih*, ya'ni ma'lum so'zni noma'lum o'rnida yurutmak deb ataptur va depturkim, men bu san'atni *tajohul* deb atamoqni sevmamen, sabab uldurkim, Tengri taoloning kalominda voqe' bo'luptur, Alloh, toboraka taolo deptur: inna av iyyakum la'ala hudan av fi zalalin mubin, ya'ni haqiqatabiz yo siz har holda to'g'ri yo'ldamiz yo yo'ldan ochiq ozg'anmiz. Bu

oyattag‘i ma‘lumni noma‘lum yo‘l bila ifoda etkan nukta kufr ahlig‘a arz etilmishtur” [3.: 132]. Ya‘ni, baytda *dog‘* va *tim* so‘zlari *lolai No‘‘mon* orqali o‘zaro bog‘lanadi. Mumtoz adabiyotda No‘‘mon turlicha talqin etilgan: masalan, arablardagi Toif shahri yaqinidagi daryoning nomi deb ham faraz qilingan. Lekin forsiy lug‘at manbalarga ko‘ra, No‘mon podshoh bo‘lib, u aslida tog‘dan lola keltirib, parvarish qilgani uchun unga *lolai No‘mon* degan nisbat berilgan [4.: 603]. Haqiqatan ham, o‘tmishda shunday nisbatli shaxs bo‘lgan. Tarixiy manbada qayd etilishicha, bu tarz shunday ramziy tus oladi: ajam mulkida Yazdijird Binni Bahrom degan bir zolim podshoh bo‘lib, u 8 yil deganda bir o‘g‘il farzand ko‘radi, lekin negadir o‘g‘lini o‘sha podshoh No‘‘mon binni Munzirga topshiradi. No‘‘mon uning o‘g‘lini, ya‘ni Bahromni xuddi tog‘ lolasi singari xushhavo yerlarda yaxshi tarbiya qilgan. Keyinchalik, aniqrog‘i, otasi vafotidan so‘ng, Bahromning o‘g‘li No‘‘mon yordamida zolim otasi podshohligini qo‘lga kiritadi. U otasi buzgan ishlarni tuzadi va mamlakatda adolat o‘rnatadi... [5.:2 34]. Shoir umidicha, Husayn Boyqaro ham go‘yo shunday yo‘l tutganda edi, balki uning mamlakati kelajagi ham ana o‘shunday toza buloq suvini ichib ungan tog‘ lolasidek qobil farzand qo‘liga o‘tgan bo‘lar edi. Ehtimolki shundandir, ulug‘ shoir ushbu g‘azalni bitayotganda uning taxayyuli bir muddat “Majolis un-nafois”ning 8 majlisida shoh va shoir Husayn Boyqaro g‘azallaridagi o‘zi sharhlagan bir bayt tahlili sari o‘rlashgan bo‘lsa, ne ajab: “Manzurning labi tabassumini va o‘zini qonalg‘on dog‘ini g‘unchai xandon va *lolai No‘mong‘a* tashbih qilibdur va ma‘nisi she‘r sanoye‘idin “tajohul ul-orif” uslubida xush voqe‘ bo‘lubtur:

Ayladi la‘li tabassum, g‘unchai xandon emas,  
Dog‘ini ko‘nglum qonatti, lolai No‘‘mon emas.

Xossatan, Navoiy asarlari matnini talqin qilish uning nazm-nasr tarzida yozilgan manbalar ekanligiga binoan, nazmiy va nasriy asarlar matnini o‘rganishga qo‘yilgan talablar asosida kompleks tekshirilishni taqozo qiladi. Semiotik talqin ulug‘ shoir asarlari matnining badiiy, ilmiy, tarixiy mavzudagi barcha asarlari uchun ham joriy qilinishi maqsadga muvofiqdir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Tojiboev M., Yusupova Sh., Bo‘riyeva E. Adabiy germenevtika va mumtoz badiiy til. – T.: Universitet, 2013. – B.13.
2. Erkinov A. Alisher Navoiy “Xamsa”si talqinining XV–XIX asr manbalari: filol. fan. dokt. ... diss. – T.: O‘zRFA, 1998. – B.4.
3. Husayniy A. Badoye‘ us-sanoye‘/Tarjima, izoh va sharhlar muallifi Alibek Rustamov.– T.: G‘afur G‘ulom nashriyoti, 1981. – B.132.
4. Farhangi zaboni tochiki (az asri X to ibtidoi asri XX) T.1. –M.: Sovetskaya ensiklopediya, 1969. –S.603.
5. Alisher Navoiy. Tarixi muluki ajam/Mukammal asarlar to‘plami. – T.: Fan, 2000. – B.234–235.

**MUNDARIJA:**

<b>I SHU'BA</b>	<b>NAVOIY MEROSI: GLOBAL TADQIQOTLAR VA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR</b>	3
<b>To'xliyev B.</b>	NAVOIY ASARLARI – MILLIY ADABIYOT NAZARIYASINING NODIR MANBASI	4
<b>Qobilov U.U.</b>	ALISHER NAVOIYNING “BADOYE’ UL-VASAT” DEVONIDA BADIY TIMSOLLAR TALQINI	10
<b>Abdulxayrov M.X.</b>	ALISHER NAVOIY ASARLARI MATNI TALQINI MUAMMOLARI	20
<b>Ismailov I.O.</b>	ALISHER NAVOIY VA HUSAYN BOYQARO: AYRILIQ VA ABADIYAT	26
<b>Sabirova N.</b>	NAVOIY VA XALQ OG‘ZAKI IJODI	30
<b>Xalliyeva G.I.</b>	ALISHER NAVOIY QO‘LYOZMALARI DUNYO FONDLARIDA	34
<b>Karimov B.B.</b>	NAVOIY QO‘LYOZMALARINING RAQAMLI ARXIVLARI: METADATA, TAVSIF VA TASNIF MUAMMOLARI	40
<b>Daniyarov B.X.</b>	NAVOIY O‘ZBEK MILLIY ETNOSI HAQIDA	44
<b>Тикаев Г.Г.</b>	К ВОПРОСУ ОБ АРАБИЗМАХ В ТВОРЧЕСТВЕ АЛИШЕРА НАВОИ	50
<b>Saidjanova Z.K.</b>	ALISHER NAVOIY IJODINING SARCHASHMALARI	57
<b>Алламуратова Г. Ж.</b>	ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ И ИННОВАЦИОННЫЕ СТРАТЕГИИ ПЕРЕВОДА НАСЛЕДИЯ АЛИШЕРА НАВОИ НА ИНОСТРАННЫЕ ЯЗЫКИ	60
<b>Pazlitdinova N.Z.</b>	ALISHER NAVOIY SHE’RIYATIDA MULAMMA’ VA IQTIBOS	64

**NAVOIY MEROSI: GLOBAL TADQIQOTLAR VA ZAMONAVIY  
YONDASHUVLAR**

<b>Muharrir</b>	<b>M.Otaxonov</b>
<b>Musahhih</b>	<b>I.O'rinboyev</b>
<b>Texnik Muharrir</b>	<b>H.Yusupbayeva</b>

**UO'K. 52(088.1)(073)**

**KBK. 24.2ya8**

**ISBN. 978-9910-8478-0-6**

**Nashriyot litsenziyasi № 286135 28.05.2024**

**Bosishga topshirilgan vaqti : 11:00. Topshirildi 11:00**

**Qog'oz bichimi : A5 Add: 100 nusxa**


**Xajmi: 60x84-1/16 b.t. Buyurtma №1250**

**“QAL'A” nashriyoti**

**“FLY POLYGRAPH” MCHJ da offset usulida chop etildi**

**Urganch shaxri “Alisher Navoiy” ko'chasi 100-a uy**

**Tel (+998)95-958-45-45**



Turk nazmida chu men tortib alam,  
Ayladim ul mamlakatni yakqalam.  
Alisher Navoiy

**QAL'A**  
**NASHR**